

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### "UMUMIY HARBIY MAJBURIYAT VA HARBIY XIZMAT TO'G'RISIDA" GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 24-iyulda  
qabul qilingan  
Senat tomonidan 2021-yil 27-avgustda  
ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi 436-II-sonli [Qonuniga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 12, 217-modda; 2003-yil, № 9-10, 149-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 6, 262-modda; 2008-yil, № 9, 481-modda, № 12, 630-modda; 2009-yil, № 12, 470-modda; 2016-yil, № 9, 276-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 7, 431-modda; 2019-yil, № 2, 47-modda, № 9, 589-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 8, 491-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 6-moddaning [to'rtinchi qismi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Safarbarlik chaqiruvi rezervida oylik yig'inni o'tagan fuqarolar Qurolli Kuchlar rezerviga o'tkaziladilar";

2) 13-moddaning [birinchi qismi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, shu jumladan fuqaro muhofazasi va tibbiy bilim asoslari bo'yicha tayyorgarlik o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lif muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o'tiladi";

3) 14-moddaning [ikkinchi qismidagi](#) "o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'lifi" degan so'zlar "o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lifi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

4) 15-moddaning [birinchi qismidagi](#) "umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'lifi" degan so'zlar "umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lifi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

5) [18-moddaning:](#)

[uchinchi qismi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lif muassasasidagi oxirgi o'quv yilining oktyabr-noyabr oylarida amalga oshiriladi";

[beshinchi qismidagi](#) "tegishli komissiyalar" degan so'zlar "fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish komissiyalar" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

6) [20-modda](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

#### **"20-modda. Chaqiruvni o'tkazish bo'yicha komissiyalar**

Fuqarolarni muddatli harbiy va muqobil xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish uchun quyidagi komissiyalar tashkil etiladi:

1) muddatli harbiy xizmatga chaqirish uchun:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mudofaa ishlari boshqarmalari huzuridagi Rahbariyat kengashi (bundan buyon matnda Rahbariyat kengashi deb yuritiladi);

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yig'ish punktlarida — harbiy-tibbiy komissiya (bundan buyon matnda harbiy-tibbiy komissiya deb yuritiladi);

tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari huzurida Qurolli Kuchlarni butlash komissiyasi (bundan buyon matnda butlash komissiyasi deb yuritiladi);

2) muqobil xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish, harbiy xizmatga chaqirishni kechiktirish va Qurolli Kuchlar zaxirasiga o'tkazish uchun — tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari huzuridagi hududiy komissiya (bundan buyon matnda hududiy komissiya deb yuritiladi);

3) chaqiriluvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, sog'lig'ining darajasini aniqlash va davolanishga yuborish uchun — mudofaa ishlari bo'limlari huzuridagi hududiy tibbiy komissiya (bundan buyon matnda hududiy tibbiy komissiya deb yuritiladi).

Chaqiruvni o'tkazish bo'yicha komissiyalarning tuzilishi va faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Chaqiruvni o'tkazish bo'yicha komissiyalarning shaxsiy tarkibi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Harbiy va muqobil xizmatga chaqirilayotgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomga muvofiq majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi shart";

7) quyidagi mazmundagi 20<sup>1</sup> va 20<sup>2</sup>-moddalar bilan to'ldirilsin:

**"20<sup>1</sup>-modda. Rahbariyat kengashining, harbiy-tibbiy komissiyaning, butlash komissiyasining, hududiy komissiyaning, hududiy tibbiy komissiyaning asosiy vazifalari**

Rahbariyat kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

chaqiruv tadbiralarini sifatli tashkil etish;

chaqiriluvchilarning jismoniy tayyorgarligi, fikrlash qobiliyati, fidoyiligi, qiziqishlari va boshqa xususiyatlari inobatga olingan holda, ularning butlash komissiyasi tomonidan qo'shin turlariga to'g'ri tayinlanganligiga baho berish;

harbiy-tibbiy komissiya tomonidan sog'lig'ining holatiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan chaqiriluvchilarni Qurolli Kuchlarning qo'shin turlari komandalariga tayinlash yoki tayinlamaslik to'g'risida qarorlar qabul qilish;

chaqiriluvchilarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish;

chaqiriluvchilarni yig'ish va tantanali ravishda harbiy qismlarga yuborishga doir tadbirlarni o'tkazish chog'ida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini tashkil etish;

jamoat tartibini saqlash ishlarni tashkil etish hamda butlash komissiyalari, harbiy-tibbiy komissiyalar, hududiy tibbiy komissiyalar faoliyat olib borishi uchun joylarda zarur shart-sharoitlar yaratish, ularni dori vositalari, tibbiy inventarlar va boshqa moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash;

muddatli harbiy xizmatga chaqirish ishlarning oshkorligini, shuningdek chaqiruvga oid tadbirlarning ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlash;

harbiy-tibbiy komissiyalarning, butlash komissiyalarining va hududiy tibbiy komissiyalarning qarorlaridan norozi bo'lgan chaqiriluvchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqish, shuningdek ularni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish;

muddatli harbiy xizmatchilarning Qurolli Kuchlar safidan muddatidan avval qaytarilganligi bo'yicha tekshiruv o'tkazish, uning sabablarini aniqlash va yakunlari bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rish.

Harbiy-tibbiy komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

butlash komissiyasi tomonidan qo'shin turlariga tayinlangan chaqiriluvchilarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

chaqiriluvchilarning hisob kartalariga shifokor-mutaxassislar tomonidan kiritilgan yozuvlar va xulosalarning to'g'rilingini tekshirish;

Rahbariyat kengashi raisi bilan birgalikda chaqiriluvchilarni qo'shimcha tekshiruv va davolashga yuborish, shuningdek ularning chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tishni davom ettirish uchun harbiy-tibbiy komissiyaga qaytib kelishlari ustidan nazorat o'rnatish;

chaqiriluvchilar sog'lig'ining holatiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqliligi to'g'risida yakuniy tibbiy xulosa chiqarish;

tibbiy komissiyalar faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish va bartaraf etish;

Qurolli Kuchlarni butlash yakunlariga ko'ra tibbiy komissiyalar ishi natijalarini umumlashtirish, tegishli hisobotni tayyorlash va belgilangan tartibda Rahbariyat kengashi raisiga, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etish.

Butlash komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun tavsiya etilgan va hududiy tibbiy komissiya tomonidan harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan chaqiriluvchilar bilan suhbat o'tkazish, shuningdek ular sog'lig'ining holatini, jismoniy tayyorgarligini, fikrlash qobiliyatini va boshqa sifatlarini inobatga olgan holda, qo'shin turlariga tayinlash to'g'risida qarorlar qabul qilish;

tegishli toifa va cheklanish darajasi bo'yicha harbiy xizmatga yaroqlilik to'g'risida qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish va chaqiriluvchilarning yig'ma jildlarida saqlash;

chaqiriluvchilarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish ishlarining oshkorligi va xolisligini ta'minlash;

chaqiriluvchilarni yig'ish va tantanali ravishda harbiy qismlarga yuborishga doir tadbirlarni o'tkazishda joylardagi tegishli idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini tashkil etish;

chaqiriluvchilarning, ular ota-onalarining chaqiruvga oid murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, shuningdek tegishli qarorlar qabul qilish.

Hududiy komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

chaqiriluvchilarni muqobil xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish, harbiy xizmatga chaqirishni kechiktirish va Qurolli Kuchlar zaxirasiga o'tkazish;

chaqiriluvchilarni yig'ish, muqobil xizmatga yuborish, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish, shuningdek Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni doimiy yashash joylariga qaytarilishiga oid tadbirlarni tantanali ravishda o'tkazishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni tashkil etish;

chaqiriluvchilarni muddatli harbiy xizmatga va muqobil xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish, shuningdek Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni doimiy yashash joylariga qaytarilishi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish;

chaqiruvning va komissiya faoliyatining oshkorligini ta'minlash.

Hududiy tibbiy komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

chaqiriluvchilarni birlamchi tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

psixiatriya, narkologiya, teri-tanosil dispanserlarida, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatida, ftiziatriya va pulmonologiya markazida hisobda turadigan chaqiriluvchilar to'g'risida axborot yig'ish;

chaqiriluvchilarni qo'shimcha tekshiruvga va davolanishga yuborish, shuningdek ularning tibbiy ko'rikdan o'tishni davom ettirish uchun hududiy tibbiy komissiyaga qaytib kelishi ustidan nazoratni o'rnatish;

chaqiriluvchilar sog'lig'ining holatiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqliligi to'g'risida xulosa berish;

hududiy tibbiy komissiya faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish va bartaraf etish;

chaqiriluvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash va mazkur hisobotni harbiy-tibbiy komissiyaga, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining hududiy boshqarmasiga (organiga) hamda mudofaa ishlari boshqarmasiga taqdim etish.

## **20<sup>2</sup>-modda. Rahbariyat kengashi, harbiy-tibbiy komissiya, butlash komissiyasi, hududiy komissiya, hududiy tibbiy komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar (xulosalar)**

Rahbariyat kengashi quyidagi qarorlarni qabul qiladi: